


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI.....	14
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich	
GREEN ECONOMY TRANSITION AND INVESTMENT CHALLENGES IN DEVELOPING COUNTRIES	20
Ismoilov Sulaymon Axmadjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL SOLIQQA TORTISH TIZIMINI MUAMMOLAR, YECHIM VA IMKONIYATLARI ASOSIDA JORIY ETISH.....	24
Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	30
Nosirova Kamola Alimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH	39
Xazratov Abror Panjiyevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	44
Astanayev Kulmaxammat Sanayevich	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATION DEPOZIT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING BANK RESURS BAZASIGA TA'SIRI.....	51
Ro'zimurodov Olim, Normamatov Ruslanbek Shamsiddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI.....	57
Xalikulova Gulzada Tadjimuratovna, Kodirova Samira Kamol qizi	
MEHNAT SHARTNOMASI ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI QO'RIQLASH DEPARTAMENTI TIZIMIDAGI IDORAVIY HARBIYLASHTIRILGAN QO'RIQLASH VA IDORAVIY QOROVULLIK BO'LINMALARI ISHCHI-XIZMATCHILARIGA DAVLAT IJTIMOYIY SUG'URTASINI TATBIQ ETISHNING HUQUQIY-IQTISODIY JIHATLARI	64
Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li	
ТЕОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ИСЛАМСКОГО СТРАХОВАНИЯ И ЕГО СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НА ПРИМЕРЕ БЛИЖНЕВОСТОЧНЫХ СТРАН.....	70
Гаффоров Шухрат Насриевич	
IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA MADANIY TURIZM SOHASIDAGI SUBYEKTLAR TA'SIRINI BAHOLASH USULLARI.....	77
Shohruxbek Ruziyev	
"YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH SIYOSATINING DASTAKLARI.....	84
Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O'roqov	
RAQAMLI MEDIA BOZORI SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARIDA DAROMAD MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING IQTISODIY USTUVOR YO'NALISHLARI.....	87
Sharipova Shahlo Istamovna	
TIJORAT BANKLARINING AHOLINING HUDUDIY XARID QOBILIYATIGA YO'NALTIRILGAN KREDIT SIYOSATINI TASHKIL ETISH TIZIMI	92
Tursunov Bekmuxammad Omonovich, Qarshiyev O'ktam G'aybullo o'g'li	
INVESTITSYALAR BUXGALTERIYA HISOBİ OBYEKTI SIFATIDA.....	99
I.Boymurodov	
TA'LIM MUASSASALARIDA SAMARALI MENEJMENT MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH	103
Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o'g'li, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI MOLIALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA BUDJET XARAJATLARI DINAMIKASI	110
Sarsenbaev Baxitjan, Toremuratova Indira, Xayirbaeva Balzira	



TASHQI SAVDO FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING FISKAL VA INSTITUTSIONAL TAHLILI	115
Almuradov Ne'mat Abdullayevich	
SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY MEXANIZMLARINI ISLOH QILISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	123
Kuzieva Nargiza Ramazanovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA DAVLAT MULKINI BOSHQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....	130
Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARIDA SANOAT 4.0 MODELIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI TAHLILI.....	136
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA AMALIY IQTISODIYOTNING INTEGRATSION MEXANIZMI ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	141
Bobojonova Zarnigor Shokirovna	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	149
Axmedov Umidjon	
NMSH TURIDAGI RELEARNING TEXNIK TAVSIFLARINI TEKSHIRISH UCHUN STEND ISHLAB CHIQISH.	156
Raxmonov Bobomurod, Qodirov Azamat, Yusupova Shirin, Mirzaraxmedov Zafar	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ВЛИЯНИЯ КЛАСТЕРОВ ИНДУСТРИИ РАЗВЛЕЧЕНИЙ НА РЕГИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ (ЗАНЯТОСТЬ, ДОХОДЫ, ТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТОК, НАЛОГОВЫЕ ПОСТУПЛЕНИЯ): КРИТЕРИИ И МЕТОДЫ ОЦЕНКИ	163
Султонмуродов Мирзо-Улугбек Мукумжон углы	
ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ В ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ЦЕНТРАХ: ПРИМЕНЕНИЕ AI-ИНСТРУМЕНТОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ УЧЕБНЫХ ГРУПП.....	170
Джамолова Хилола Исматиллаевна, Алимова Машхура Тоирхоновна	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MUHIM YO'NALISHLARI	175
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	181
Raxmanov Zafar Yashinovich	
КРЕАТИВНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЕМЕСЕЛ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	187
Хушназарова Махзуна Гуламджановна	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL	193
Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
ФОРМИРОВАНИЕ И НАКОПЛЕНИЕ ПЕРВЫХ МЕДИЦИНСКИХ ЗНАНИЙ	200
Рахматуллаева Фотима Султонмуродовна	
SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI	206
Bobomuradova Sarvinov Ziyadullayevna	
SAVDO KORXONALARIDA SEGMENTLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASHNING USLUBIY ASOSLARI	206
Bobomuradova Sarvinov Ziyadullayevna	
ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ НИТРООКСИДИРОВАНИЯ НА СТРУКТУРУ И ЭКСПЛУАТАЦИОННЫЕ СВОЙСТВА КОНСТРУКЦИОННЫХ СТАЛЕЙ	212
Бойназаров Урол Равшанович	



SANOAT ISHLAB CHIQARISHI VA IQTISODIY O'SISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'SIRI	219
Pardayev Orifjon Charshamiyevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA FISKAL INSTRUMENTLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING AMALIY JIHATLARI	224
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	
RAQAMLI TAFOVUT (DIGITAL DIVIDE) VA UNING QISHLOQ HUDUDLARIDA ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRI (ISH KUCHI VA KAPITAL HAQIDAGI IQTISODIY NAZARIYA DOIRASIDA)	230
O'rozaliyev Elyor Shuxrat o'g'li	
THE ESSENCE AND PLACE OF LOGISTICS IN THE SYSTEM OF THE NEW MARKET ECONOMY OF UZBEKISTAN	236
Musayeva Shoira Azimovna	
MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA XARAJATLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	241
Soibbekov Abdulvosit, Teshaboyev Xushnud	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI	247
Amonov Muhsin Erkinovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING RISKLARNI ANIQLASH VA BAHOLASHDAGI O'RNI	251
Sirojev Nurbek G'ulomiddin o'g'li	
PARRANDACHILIK SOHASINING ZARURATI, O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	255
Hayitnazarova Holida Bekmurzayevna	
AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHDA KO'P QAVATLI TURAR JOY MAJMUALARI JOYLASHUVINING EKONOMETRIK MODELLARI: JAHON TAJRIBASI	265
Farmonov Bobur Davronovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI HISOBI VA AUDITINING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI: ELEKTR ENERGETIKASI TARMOG'INING O'ZIGA XOS JIHATLARI	277
Djurayev Davlat Djonibekovich	
HUDUDLARDA XIZMATLAR SOHASINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	281
Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich	
ZAMONAVIY UY-JOY FONDI BOSHQARUVIGA YO'NALTIRILGAN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TASHKIL ETISH STRATEGIYASI	285
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
УПРАВЛЕНИЕ КРЕДИТНЫМ РИСКОМ В СИСТЕМЕ РОЗНИЧНОГО БАНКОВСКОГО КРЕДИТОВАНИЯ..	290
Базарова Ниropa	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHİYATINI BAHOLASH USULLARI	297
Odinayev Nuriddin Ramozon o'g'li	
MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISHNING XALQARO ISO STANDARTLARI TIZIMINING XUSUSIYATLARI	301
Atakulov Askad Raimkulovich	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING XALQARO TURIZM OQIMLARIGA TA'SIRI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA MINTAQAVIY TAHLIL	308
Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
MENEJMENTDA XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI TAMOIYLLARINI QO'LLASH VA UNING XODIMLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI	316
Axmadoy Shukurbek Farruxovich, Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA E-TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI TAHLILI VA SAMARADORLIGI	322
Aripova Aziza Alisherovna, Raximova Shaxlo Rajapboevna	
YER VA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	326
Xudoyberdiyev Diyorbek Norqobil o'g'li	



AXBOROT-KUTUBXONA MARKAZLARI FAOLIYATIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISHI: NAZARIY MODEL DAN AMALIYOT TAHLILIGA	331
Grebenyuk Martin Valentinovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARUV HISOBIDA OMILLARGA ASOSLANGAN BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	335
Xushvaqтова Nozanin Nurbek qizi	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA BANK SEKTORIGA TA'SIRI: 2015–2025 YILLAR EMPIRIK TAHLILI	342
Safarova Gulruh Akmal qizi, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
TAQSIMLASH TARMOQLARIDAGI TRANSFORMATORLAR ISHONCHLILIGINI OSHIRISH VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISHDA AVTOMATLASHTIRILGAN MONITORING TIZIMLARINING O'RNI	348
Toirov O.Z., Sh.N. Xudoberdiyev	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЭФФЕКТЫ И РИСКИ ЦИФРОВОГО ИСКЛЮЧЕНИЯ	353
Шоахмедов Шохрух Шорахимович	
QISHLOQ XO'JALIGI SUBYEKTLARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI YURITISH XUSUSIYATLARI	358
Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich, Hamroyeva Feruza Azizjon qizi	
TIJORAT BANKLARI ORQALI DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	362
Shodiyev Shuhrat Sunnat o'g'li	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI BAHOLASH: MDH DAVLATLARI PANEL MA'LUMOTLARI ASOSIDA (2000–2021)	367
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA INVESTITSİYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	377
Nasirova Kamola Alimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	386
Uzakova Umida Ruziyevna	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ КАК ОСНОВА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	392
Юлдашева С.Ш.	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA "YASHIL" INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ASOSIDA RESURS SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	397
I. Mahammadiyeva	
SAVDO KORXONALARINI BOSHQARUV TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH SHART-SHAROITLARI ...	402
B. Sulaymonov	

SAVDO KORXONALARINI BOSHQARUV TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH SHART-SHAROITLARI



B. Sulaymonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Savdo ishi” kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: Sulaymonov_bahodir1970@gmail.com

ORCID: 0009-0002-4838-1124

ANNOTATSIIYA. Savdo korxonalarida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish mahsulotlarni o'z vaqtida va sifatli yetkazib berish, mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuvni shakllantirish, ichki jarayonlarni optimallashtirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, elektron tijoratning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish va biznes muhitini yanada qulaylashtirish savdo korxonalarini faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: savdo korxonasi, bozor munosabatlari, xalqaro tajriba, moliyaviy barqarorlik, xizmat ko'rsatish sifati, boshqaruv tizimi, tashqi va ichki kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar, malakali kadrlar, soliq tushumlari.

АННОТАЦИЯ. Повышение эффективности системы управления торговыми предприятиями способствует своевременной и качественной поставке продукции, формированию гибкого подхода к потребностям клиентов, оптимизации внутренних процессов и рациональному использованию ресурсов. Экономические реформы, осуществляемые в стране, в частности стремительное развитие электронной коммерции, модернизация систем управления на основе цифровых технологий и совершенствование деловой среды, оказывают существенное влияние на деятельность торговых предприятий. Внедрение современных управленческих подходов выступает важным фактором повышения конкурентоспособности торговых предприятий, улучшения качества обслуживания и обеспечения их устойчивого развития.

Ключевые слова: торговое предприятие, рыночные отношения, международный опыт, финансовая устойчивость, качество обслуживания, система управления, внешние и внутренние коммуникации, цифровые технологии, квалифицированные кадры, налоговые поступления.

ABSTRACT. Improving the efficiency of management systems in trade enterprises contributes to the timely and high-quality delivery of goods, the development of a flexible customer-oriented approach, the optimization of internal processes, and the rational use of resources. Ongoing economic reforms, particularly the rapid development of e-commerce, the modernization of management systems through digital technologies, and the improvement of the business environment, have a significant impact on the activities of trade enterprises. The implementation of modern management approaches serves as an important factor in enhancing competitiveness, improving service quality, and ensuring sustainable development of trade enterprises.

Keywords: trade enterprise, market relations, international experience, financial stability, service quality, management system, internal and external communication, digital technologies, qualified personnel, tax revenues.

KIRISH

Savdo tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida ularning raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va innovatsion salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Bunday sharoitda savdo tashkilotlarining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida savdo tashkilotlari faoliyatini har tomonlama baholaydigan ko'rsatkichlar tizimiga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu



ko'rsatkichlar nafaqat savdo tashkilotlarining ichki imkoniyatlarini, balki tashqi bozordagi mavqeini aniqlashda ham muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, savdo tashkilotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish va uni takomillashtirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Savdo tashkilotlari samaradorligini aniqlash uchun xalqaro tajribada turli indikatorlar, reytinglar va baholash metodikalari mavjud. Ular orqali tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasi, texnologik imkoniyatlari va raqobatbardoshligi kabi ko'plab jihatlar tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlar milliy xususiyatlardan kelib chiqib, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan holda qo'llanilishi mumkin. Shuning uchun ham savdo tashkilotlari uchun moslashtirilgan, samarali va dinamik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda ichki bozordagi barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa savdo tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishiga bevosita bog'liq. Mazkur tashkilotlar tovar ayirboshlashni ta'minlash, iste'molchilar talabini qondirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda soliq tushumlarini shakllantirish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, ularning samaradorligini baholash va muntazam ravishda tahlil qilib borish boshqaruv jarayonida asoslangan va samarali qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Savdo korxonalarini boshqarish masalalari iqtisodiyot fanida korxona samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Soliyev A.X. va Sattorov S.A. savdo korxonalarida boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilmasi, resurslardan oqilona foydalanish va bozor sharoitlariga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini asoslab berganlar. Sayfiddinov M.H. esa savdo tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi, ichki nazorat tizimlari va strategik rejalashtirishning o'zni muhim ekanligini ta'kidlaydi [1; 2].

Savdo korxonalarini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mahmudov Sh.F. savdo va marketing faoliyatida zamonaviy boshqaruv yondashuvlarining korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini yoritgan bo'lsa, Ismailov J. innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish savdo korxonalarining bozor ulushini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga xizmat qilishini qayd etadi. Turaev B.B. raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarni boshqarish jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan asoslagan [3; 4; 5].

Xorijiy tadqiqotlarda savdo korxonalari faoliyatini baholash va boshqaruv tizimini takomillashtirishda strategik boshqaruv konsepsiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Kaplan R.S. va Norton D.P. tomonidan ishlab chiqilgan balanslangan ko'rsatkichlar tizimi korxona faoliyatini moliyaviy va nomoliyaviy indikatorlar asosida kompleks baholash imkonini beradi [6; 9]. OECD ekspertlari esa samaradorlik ko'rsatkichlari asosida boshqaruv tizimlarini takomillashtirish tashkilotlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashini ta'kidlaydilar [8]. Mazkur ilmiy yondashuvlar savdo korxonalarini boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Savdo korxonasi boshqaruv tizimini takomillashtirish, ayniqsa, raqobatbardosh bozor sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarurdir. Boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va tizimdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator yo'llar mavjud. Quyida savdo korxonalari boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid asosiy yo'nalishlar keltirilgan.

Boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, tashkilotning boshqaruv tuzilmasini optimallashtirish lozim. Bu orqali boshqaruv tizimining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, funksional bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish va zarur bo'lgan o'zgarishlarga tezkor moslashishni ta'minlash muhimdir. Tashkilotning har bir bo'limi o'z maqsadlariga erishishi uchun boshqaruv tizimi tomonidan muvofiqlashtirilgan va qo'llab-quvvatlangan bo'lishi kerak.

Savdo korxonalari boshqaruv tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish juda muhimdir. Boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, xaridorlar ehtiyojlarini prognozlash hamda marketing strategiyalarini ishlab chiqishda texnologiyalar yordamida samarali boshqaruv tizimini yaratish mumkin. Masalan, ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari, CRM (Customer Relationship Management) tizimlari va boshqa raqamli platformalardan foydalanish orqali ish jarayonlarini optimallashtirish hamda samaradorlikni oshirish mumkin.

Savdo korxonalari boshqaruv tizimining muvaffaqiyati ko'p jihatdan xodimlarning motivatsiyasi va ishga

bo'lgan qiziqishiga bog'liq. Xodimlarni rag'batlantirish va ularning faoliyatini samarali boshqarish uchun mavjud tizimlarni takomillashtirish zarur. Bu o'z ichiga ish haqi, bonuslar, mukofotlar va boshqa rag'batlantiruvchi mexanizmlarni oladi. Xodimlar uchun yuqori sifatli treninglar va o'quv kurslarini tashkil etish orqali ularning kasbiy salohiyatini oshirish, shuningdek, jamoa ruhini mustahkamlash mumkin.

Savdo korxonalari uchun mijozlarning talablarini to'g'ri aniqlash va ularga sifatli xizmat ko'rsatish juda muhimdir. Mijozlar bilan aloqalarni yaxshilash va ularning ehtiyojlariga mos xizmatlarni taklif qilish orqali korxona nafaqat raqobatbardoshligini oshiradi, balki o'z brendini ham mustahkamlaydi. Bu borada mijozlar bilan doimiy muloqot qilish, ularga aksiyalar va maxsus takliflar orqali qo'shimcha qiymat yaratish hamda ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy boshqaruv savdo korxonasining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish va foydani maksimal darajada oshirish uchun moliyaviy nazorat hamda tahlil jarayonlarini takomillashtirish lozim. Buning uchun moliyaviy rejalashtirish, prognozlash va risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish talab etiladi.

Boshqaruv tizimining samaradorligini ta'minlashda tashqi va ichki kommunikatsiyaning o'rni katta. Ichki kommunikatsiya orqali xodimlar o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlash, tashqi kommunikatsiya orqali esa mijozlar, yetkazib beruvchilar va boshqa biznes hamkorlar bilan samarali aloqalar o'rnatish zarur. Sifatli kommunikatsiya boshqaruvning har bir bosqichida to'g'ri qarorlar qabul qilish va ularni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Savdo korxonalari boshqaruvi uchun bozor va raqobat muhitini tahlil qilish, shuningdek, raqobatchilar faoliyatini kuzatib borish muhim ahamiyatga ega. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun bozor o'zgarishlari va mijozlar ehtiyojlarini oldindan aniqlash, shuningdek, yangi marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bu orqali korxona raqobatchilariga nisbatan ustunlikka erishishi mumkin.

Savdo korxonalari o'z faoliyatida ijtimoiy mas'uliyatni ham yuksaltirishlari lozim. Bu nafaqat mijozlar manfaatlarini, balki jamiyat va atrof-muhit manfaatlarini ham inobatga olgan holda qarorlar qabul qilishni anglatadi. Korxonaning ijtimoiy mas'uliyati doirasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, xodimlar farovonligini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash nazarda tutiladi.

Savdo korxonasi boshqaruv tizimini takomillashtirishda yuqorida keltirilgan yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega. Boshqaruvni yaxshilash orqali korxona o'z faoliyatini samarali tashkil etib, raqobatbardoshligini oshirishi va bozor talablariga tezkor moslashishi mumkin. Bunda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni rag'batlantirish, mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish va moliyaviy boshqaruvni optimallashtirish alohida o'rin tutadi.

Korxona boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish tashkilot samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash va bozor talablariga tezkor moslashish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy boshqaruv tizimi texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, korxona boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha bir qator takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish, xodimlar samaradorligini oshirish va mijozlar bilan aloqalarni rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarur.

ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari yordamida korxona resurslarini samarali boshqarish, moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. CRM (Customer Relationship Management) tizimlari esa mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish va ularning ehtiyojlarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Shuningdek, Big Data va Business Intelligence texnologiyalaridan foydalanish korxona faoliyatini tahlil qilish, prognozlar ishlab chiqish hamda bozor tendensiyalarini o'rganish imkonini beradi.

Korxona boshqaruvini yanada samarali tashkil etish uchun ish jarayonlarini avtomatlashtirish zarur. Bu boshqaruv jarayonlarining tezligini oshiradi, xatolarni kamaytiradi va xodimlarning vaqtini tejaydi. Raqamli tizimlar yordamida xodimlarning ish vaqti, resurslar va materiallardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish mumkin. Shuningdek, avtomatlashtirilgan hisobotlar va ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlaridan foydalanish qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi.

Korxona boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda rahbarlarning roli alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy boshqaruv liderlari innovatsiyalarni joriy etish va xodimlarga yangi ish usullarini o'rgatishda faol ishtirok etishlari lozim. Treninglar va o'quv dasturlari orqali rahbarlar hamda boshqaruvchilarni zamonaviy boshqaruv uslublari, innovatsion texnologiyalar va xodimlarni motivatsiya qilish bo'yicha tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ko'p funksiyali liderlik yondashuvlarini joriy etish rahbarlarning bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni samarali bajarishi va strategik qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Korxona boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishda xodimlar bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yish



va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish zarur. Xodimlar samaradorligini oshirish uchun rag'batlantirish va mukofotlash tizimlarini yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korxona boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish uning samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini kuchaytirish va bozor talablariga moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish kabi yo'nalishlar muhim o'rin tutadi. Zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash va ilg'or tizimlarga o'tish korxonaning muvaffaqiyatli hamda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar ko'plab tarmoqlarni, jumladan, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi va savdo sohasini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlashni ko'zda tutadi. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, IT-parklarni respublikaning barcha hududlarida tashkil etish hamda sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan 220 dan ortiq ustuvor loyihalar ishga tushirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli¹ Farmonida iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimlarining raqamli rivojlanishini jadallashtirish, elektron davlat xizmatlari samaradorligini yanada oshirishni nazarda tutadi. Ushbu strategiya O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatorida bilim, resurslar, inson kapitali va ma'lumotlar bazalari alohida o'rin tutadi. Texnologik o'zgarishlar, yangi mahsulotlar yaratish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ehtiyoji innovatsiyalarni doimiy ravishda rag'batlantirib boradi. Innovatsion texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt (SI), katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) va ilg'or tahlil usullari jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Texnologiyalar transferi, intellektual mahsulotlar yaratish va ilmiy tadqiqotlar orqali korxonalar texnologik yetakchilikka erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, savdo sohasida ham yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, raqamli moliya, elektron tijorat va ish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha zamonaviy yechimlar keng qo'llanilmoqda. O'zbekiston raqamli iqtisodiyot bo'yicha qabul qilingan strategiyalar orqali innovatsion rivojlanish va texnologik taraqqiyotni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda xalqaro hamkorlik va investitsiyalar muhim o'rin egallaydi.

Yaqin yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Iqtisodiyot ochiq, innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlanish yo'lga o'tdi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish va malakali mutaxassislar salohiyatini oshirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Savdo sohasida raqamli iqtisodiyotning kengayishi ish unumdorligini oshirish, korxonalar samaradorligini yuksaltirish, bulutli hisoblash texnologiyalari va onlayn platformalar orqali yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar tajribasini yanada yaxshilash imkonini beradi.

Innovatsion rivojlanishni jadallashtirish uchun ilmiy tadqiqotlar, sanoat siyosati va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, iqtisodiyot tarmoqlarida texnologiyalarni takomillashtirish va yangilash jarayonlarida innovatsion strategiyalarni joriy etish zarur hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga keng joriy etish bo'yicha muhim natijalarga erishildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanishi, elektron xizmatlar ko'lamining kengayishi va raqamli platformalarning amaliyotga tatbiq etilishi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, savdo korxonalarida raqamli boshqaruv tizimlari, elektron tijorat platformalari va zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish ish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda ushbu yo'nalishlarda sezilarli natijalarga erishildi. IT sohasi vakillari uchun yaratilgan qulay sharoitlar va imtiyozlar natijasida kompaniyalar soni hamda ulardagi ish o'rinlari sezilarli darajada oshdi. Masalan, 2017-yilda 147 ta IT-kompaniya faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 1 600 taga yetdi. Ish o'rinlari soni esa o'n barobardan ko'proqqa oshib, 24 mingdan ortiqni tashkil etdi. IT xizmatlari eksporti ham jadal sur'atlarda o'sib, 2017-yildagi 600 ming AQSH dollaridan 2024-yil yakuniga qadar 300 million AQSH

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



dollaridan oshishi kutilmoqda.

Bugungi kunda My.gov.uz yagona portali orqali 8 milliondan ortiq fuqaro va tadbirkor 570 turdagi onlayn xizmatlardan foydalanmoqda. Ijro.gov.uz tizimi esa davlat organlari va ularning bo'linmalari o'rtasida 28 millionga yaqin hujjatning elektron shaklda almashinishini ta'minlamoqda. Prezident ushbu tizim rahbarlarning mas'uliyatini oshirishga xizmat qilayotganini ta'kidlab, hujjatlar sifati va tizimlararo integratsiyani yanada kuchaytirish bo'yicha tegishli topshiriqlar berdi.

2022-yildagi BMT elektron hukumat reytingida O'zbekiston 18 pog'onaga yuqorilab, 69-o'rinni egalladi. 2030-yilgacha ushbu reytingda ilk 30 talikdan joy olish maqsad qilib qo'yilgan bo'lib, bu borada aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ular ijtimoiy va iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi esa ushbu tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu jarayonlar soliq to'lovchilarning deklaratsiya topshirishidan tortib soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab olmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalari soliqlardan qochish holatlarini aniqlash, firibgarliklarning oldini olish, tahliliy jarayonlarni avtomatlashtirish va shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) esa soliq organlariga ulkan hajmdagi axborotni saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va prognozlash imkoniyatini yaratadi.

Big Data atamasi dastlab kuniga 100 gigabaytdan ortiq ma'lumot kelib tushadigan tizimlarga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu tushuncha terabayt, petabayt va ekzabayt hajmidagi ma'lumotlarni ham qamrab oladi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalar yordamida shaxslar, korxonalar, qurilmalar va ma'lumotlar o'rtasidagi aloqalarni qamrab oluvchi iqtisodiy faoliyatdir. U internet, mobil texnologiyalar va boshqa ilg'or tizimlar asosida onlayn operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar avtomatlashtirishni kuchaytirish, tahlil sifatini oshirish, yangi biznes imkoniyatlarini yaratish hamda turli sohalarning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Masalan, sayyohlar zamonaviy platformalar orqali istalgan manzilni oldindan ko'rib chiqish va bron qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa ularga vaqtni tejash va qo'shimcha qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sohaga bo'lgan talab ortib borayotgani sababli oliy ta'lim muassasalarida "Soliq va raqamli texnologiyalar" yo'nalishini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tizimni raqamli islohotlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Savdo korxonasining muvaffaqiyati va raqobatbardoshligini ta'minlashda samarali boshqaruv tizimi muhim o'rin tutadi. Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'tkazilgan tahlillar korxona boshqaruvida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatdi.

Shunday qilib, savdo korxonasi boshqaruv tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish va inson omiliga asoslangan boshqaruv yondashuvlarini qo'llash orqali nafaqat ichki samaradorlikni oshirish, balki tashqi bozordagi raqobatbardoshlikni mustahkamlash ham mumkin. Bu esa korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash va moliyaviy natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi qisqa va uzoq muddatda ijobiy iqtisodiy natijalarni ta'minlashi kutiladi. Xususan, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, savdo hajmining ortishi, soliq tushumlarining ko'payishi hamda boshqaruv samaradorligining oshishi iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur yondashuvlar zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, raqobatbardosh va barqaror boshqaruv modelini shakllantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Takliflar:

- savdo korxonalarida ERP (Enterprise Resource Planning) va CRM (Customer Relationship Management) tizimlarini keng joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish;
- korxonalarda ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida Big Data va Business Intelligence texnologiyalaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- xodimlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish, ularni zamonaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalar bo'yicha qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish hamda xizmat ko'rsatish sifatini doimiy ravishda oshirib borish;



- korxonalarda ichki va tashqi kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish orqali boshqaruv samaradorligini kuchaytirish;
- moliyaviy rejalashtirish, nazorat va risklarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish asosida korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash;
- elektron tijorat va onlayn savdo platformalaridan samarali foydalanish orqali savdo korxonalarining bozor qamrovini kengaytirish;
- korporativ ijtimoiy mas’uliyat tamoyillarini boshqaruv amaliyotiga keng tatbiq etish orqali korxonalarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Soliyev A.X., Sattorov S.A. Savdo korxonalarini boshqarish asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
2. Sayfiddinov M.H. Savdo tashkilotlarida boshqaruv samaradorligi. – Toshkent: Iqtisod, 2021.
3. Mahmudov Sh.F. Savdo va marketingda zamonaviy yondashuvlar. – Samarqand: SDU nashriyoti, 2022.
4. Ismailov J. Savdo korxonalarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Moliya, 2023.
5. Turaev B.B. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarni boshqarish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.
6. Kaplan R.S., Norton D.P. Balanslangan ko’rsatkichlar tizimi. – Moskva: Olimp-Biznes, 2020.
7. Savdo tashkilotlari to’g’risidagi ma’lumotlar bazasi. – www.chamber.uz
8. OECD. Key Performance Indicators for Public Sector. – Paris, 2021.
9. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 2000.
10. O’zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. – stat.uz



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100